

## HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARDA KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

*Rasulova Zilola Durdimurotovna*

*BuxDU Pedagogika kafedrası doktoranti,*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

***Annotatsiya:** Maqolada hamkorlikda o'qitish texnologiyasining afzalliklari, hamkorlikda o'qitish orqali talabalarda guruhlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ongli mustaqillikni tarbiyalash, kichik guruhlarda ijodiy izlanishlarni tashkil etish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadigan ta'lim shakli mazmuni haqida so'z borgan.*


Ta'lim oluvchilarni faqatgina davr talabiga javob bera oladigan faol o'qitish usullari, shakllari, vositalarini qo'llash, innovatsion yondashuv va hamkorlik orqali motivlashtirish mumkin. O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish har bir tinglovchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, tinglovchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi talaba shaxsini ta'lim olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi. Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan talabalarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ko'proq talabalar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

**Hamkorlikda o'qitish talabalarda quyidagilarni shakllantirishni ko'zda tutadi :**

1. Har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish.
2. Shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash.
3. Har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish.
4. O'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.
5. Tahsil olishda ma'suliyat hissini shakllantirish.

Ushbu texnologiya har bir ta'lim oluvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi.



### Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi xususiyatlari

Talabalar bilan o'qituvchi hamkorligidagi ta'limda quyidagi texnologik ishlar amalga oshiriladi:

№	Texnologik ishlar	Ta'lim beruvchi faoliyati
1.	Guruhlarda hamkorlikda o'qishni tashkillashtirish tayyorgarligini o'zi baholashi, tahlil qilishi	Quyidagi savollarga javob izlaydi: ✓ Nima uchun men ta'lim oluvchilar guruhlarda ishlashlarini hohlayman? Men bunga o'zim tayyormanmi? ✓ Men buni qanday amalga oshirishni bilamanmi? ✓ Ta'lim oluvchilarni o'zlari bunga tayyormilar? ✓ Ular guruhli shakl sharoitida ta'lim olish qoidalarini biladilarmi?
2.	Maqsadni belgilash	Ta'limiy maqsadni belgilaydi va natijalarni rejalashtiradi.
3.	Guruhli ishga zarur bo'lgan va o'quv rejasida ajratilgan vaqt bo'lagini o'zaro nisbati	Guruhli ishga zarur bo'lgan va o'quv rejasida ajratilgan vaqt bo'lagini o'zaro nisbati
4.	O'quv mashg'ulotining modelini tanlash	Eng yaxshi model: 1) o'quv topshiriqlarini barcha o'quv guruhlariga tushuntirish, 2) kichik guruhlarda, avval alohida, so'ngra birgalikda ishni tashkillashtirish, 3) guruh ishi natijalarini taqdimoti va uni jamoaviy yakunlash.
5.	Guruhlar ish joyi	Auditoriya shunday bo'lishi kerakki, bunda birbirlariga halaqit bermasdan, bir necha guruh ishlashi zarur. Stollar va o'rindiqlari polga maxkamlangan auditoriya to'g'ri kelmaydi.
6.	Topshiriqni tanlash va uni ifodalash	Ta'limiy maqsadga mos keluvchi bir xil tabaqalashgan topshiriqlarni tanlaydi. Uni Ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari, bilim, ko'nikma va malakalar darajasi va xususiyatlaridan kelib chiqib ifodalaydi. Bu esa barcha guruh a'zolarini topshiriqni bajarishda birgalikda ishtirok etishini ta'minlash imkonini beradi.

**Hamkorlikda o'qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a‘zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya’ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;
  - har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a‘zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas’uliyati;
  - hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
  - muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

Hamkorlikda o‘rganishda muammolarni hal qilish uchun kelgan ko‘plab onglarning intellektual sinergiyasi va umumiy ishda o‘zaro hamkorlikni ijtimoiy rag‘batlantirish mavjud. Ushbu o‘zaro izlanish, ma’no yaratish va fikr-mulohazalar ko‘pincha talabalar tomonidan yaxshiroq tushunishga va yangi tushunchalarni, kreativ g‘oyalarni yaratishga olib keladi.

**Xulosa** o‘rnida aytish mumkinki, hamkorlikda o‘qitish juda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lib, kommunikativ va ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantiradi, o‘rtoqlariga nisbatan bag‘rikenglik va hurmatli munosabatni tarbiyalaydi, jamoaviy ruhni, sezgirlikni, mustaqillikni shakllantiradi; jamoaga daxldorlik hissini yaratadi, ta’limga ijobiy munosabatni rivojlantiradi va saqlaydi, talaba shaxsining o‘zini-o‘zi qadrlashini oshirishga yordam beradi, guruhda ishlashga tayyorlikni shakllantiradi. Demak hamkorlikdagi ta’lim keng ko‘lamli va mustahkam bilim, ko‘nikma, malaka, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, muammolarni mustaqil hal etishda aniq maqsadga intilish va shaxsiy faoliyatga nisbatan talabchanlik tinglovchi yoshlar ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishining zaminidir.

### **Adabiyotlar**

1. Avliyakov N.H., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalarT: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
2. Shoyimova Sh.S., Hoshimova M.K., Mirzayeva Sh.R., Qo‘ziboyeva M.M. Ta’lim texnologiyalari – Darslik. - T.: “IJODPRINT”, 2020 – 310 b.
3. Omonov H.T., Xo‘jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. -T.: Moliya, 2012.
4. Raximov O.D., Turg‘unov O.M., Mustafaev Q.O., Ro‘ziev H.J. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari / Toshkent, “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2013 y, 200 b.